

**Rano NEKBOYEVA,**  
*Qarshi DU, katta o'qituvchi*  
*E-mail: ranonekboyeva@gmail.com*

*Qarshi DU f.f.f.d v/b dotsent M.Omonova taqrizi asosida*

## O'ZBEK TILIDA FITONIM KOMPONENTLI LEKSEMALARNING RAMZIY VA KO'CHMA MA'NOLARI

Annotatsiya

O'zbek tilshunosligida fitonim komponentli leksemalarning o'rganilish tarixi, leksik-semantik xususiyatlari, badiiy matnda fitonimlarning ko'chma va ramziy ma'nolar tabiati, hosil qilish usullari haqida ma'lumotlarni tahlilga tortdik.

Fitonimlarning leksik-semantik xususiyatlari to'g'ri, ko'chma va ramziy ma'nolari o'zaro o'xshashlikka ega bo'lib, ularni "go'zallik" semasi birlashtirib turadi. Lekin ko'chma ma'noda dunyoviy, moddiy go'zallik anglashilsa, ramziy ma'no bunday moddiylikdan holi qilinadi. Shuning uchun ramziy ma'noni to'raligicha tavsiflash mumkin emas.

**Kalit so'zlar:** Fitonimlar, ko'chma ma'no, ramziy ma'no, zohiriy ma'no.

## СИМВОЛИЧЕСКИЕ И ПЕРЕНОСНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ ЛЕКСЕМ С ФИТОНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Проанализированы история изучения лексем с фитонимическим компонентом в узбекском языкознании, лексико-семантические особенности, характер переносных и символических значений фитонимов в художественных текстах, их способы образования.

Лексико-семантические особенности фитонимов правильны, их переносное и символическое значение сходны, их объединяет тема «красота». Но если мирскую, материальную красоту понимать образно, то символическое значение освобождается от такой материальности. Поэтому полностью описать символическое значение невозможно.

**Ключевые слова:** Фитонимы, переносное значение, символическое значение, видимый смысл.

## SYMBOLIC AND FIGURATIVE MEANINGS OF LEXEMES WITH PHYTONYM COMPONENT IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

The article deals with the history of the study of lexemes with phytonym component in Uzbek linguistics, lexical-semantic features, the nature of figurative and symbolic meanings of phytonyms in literary texts, and the methods of formation.

The lexical-semantic features of phytonyms are correct, their figurative and symbolic meanings are similar, and they are united by the theme of "beauty". But if the worldly, material beauty is understood figuratively, the symbolic meaning is freed from such materiality. Therefore, it is impossible to fully describe the symbolic meaning.

**Key words:** Phytonyms, figurative meaning, symbolic meaning, apparent meaning.

**Kirish.** Jahon tilshunosligida o'simlikshunoslik (fitonimika)ka, xususan, gul va gulchilikka doir ayrim tadqiqotlar mavjud. AQShning Shimoliy Karolina universiteti tadqiqotchisi Volter Geyger "Roman tillarida fitonimik derivatsion tizimlar: kelib chiqishi va rivojlanishi yuzasidan tadqiqotlar"[3] nomli monografiyasida roman tillaridagi o'simlik nomlarini ifodalovchi apellyativ leksikaning yasalish usullari va yasovchi vositalarini o'rgangan. U o'simliklarni ifodalovchi apellyativ leksika bilan atoqli otlar (fitonimlar)ni farqlaydi. Masalan, "Odam olmasi" (Adam's apple)ni fitonim sifatida olib, uni Odamoto bilan bog'laydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Fitonimlarning badiiy nutqdagi vazifasi, o'rni va tarjimasiga doir ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Regina Kvasite "Latish adabiy ertaklari va ularning litva tiliga tarjimasida antroponim va fitonimlar (Gullar: Anna Sakse ertaklari asosida)" mavzusida tadqiqot olib borgan. Tadqiqotda xorijiy tillardagi antroponim va fitonimlarni tarixiy-etimologik chog'ishtirish asosida ularning gender jihatdan farqlanishi, tarjimasiga va bundagi muammolar dalillar asosida tahlil qilingan[5]. A.V. Isachkin Rossiyaning o'rta mintaqalaridagi o'simlik navlarining katalogini tuzgan.

O'zbek tilshunosligida o'simlik nomlari, ya'ni fitonimlar (atoqli otlar), fitonimik leksika (turdosh otlar), fitomorf metaforalar, badiiy asarlardagi fitonimlarning lingvokulturologik, lingvopoetik, leksikografik talqini, nomlanish tamoyillari, leksik-semantik, sistem-struktur, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-etimologik, shevaviy xususiyatlari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud.

O'zbek tilshunosligida G. Ne'matova, N.Pazliddinova, M. Usmonova, G.Muqimova, M. Hoshimxo'jayeva kabi tadqiqotchilar o'simlik nomlari bo'yicha fitonimlarning leksik-semantik xususiyatlari, fitonimik leksika doirasida o'z tadqiqotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishdi. Ularning tadqiqotlarida bevosita o'simlik nomlari sistem-struktur, leksik-semantik, stilistik hamda fitomorf metaforalarning lingvopoetik, lingvokulturologik va leksikografik xususiyatlari o'rganilganligini alohida qayd etish lozim. Bu esa o'simlikshunoslik sohasi leksikasini o'rganishga qiziqish kuchayib borayotganligidan dalolat beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Fitonimlarning ko'chma va ramziy ma'nolarining tabiati, hosil qilish usullari, qo'llanilish sabablari fanimizda ancha atroflicha o'rganilgan bo'lsa-da, ramziy ma'no hamda orasidagi farqlarni ochib berish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridandir.

Leksik-semasiologik tadqiqotlarda, odatda, biz ko'chma va o'z ma'nolar haqida fikr yuritar ekanmiz, to'g'ri va ko'chma ma'nolar orasidagi munosabatlar, ko'chma ma'noning hosil bo'lish yo'l va usullari, bunda metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik - ahamiyati haqida o'zbek tilshunosligida juda ko'p ma'lumotlar berilgan. Ularning natija va xulosalari o'zbek tili bo'yicha rang-barang darslik va qo'llanmalarda umumlashtirilgan.

Mumtoz adabiyotimizning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda bir asar, har bir bayt, har bir gap ikki ma'noda ifodalanadi. Unda, zohiriy ma'no, botiniy ma'no mujassamlangan bo'ladi.

Zohiriy ma'no ko'zga yaqqol tashlanib turgan, so'zning o'z va ko'chma ma'nolari asosida hosil qilinadigan yuzaki, oddiy ma'nodir. Chunonchi,

... gulni sevmasmu kishi... Bu gapning zohiriy ma'nosi "Gulni, (go'zal va yoqimli narsani) kishi sevmaydimi?" ritorik so'rog'idir.

Botiniy ma'no parchada yashiringan juda murakkab falsafiy-ma'rifiy fikr bo'lib, uning mohiyati faqat tasavvuf falsafasi yorug'idagina uqilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan gapning ma'rifiy, falsafiy (ya'ni botiniy) ma'nosini o'qish uchun tasavvuf ramziyatida gul, sevmoq, kishi so'zlarning o'ziga xos ramziy, atamaviy ma'nolarini bilmoq, ya'ni ma'rifat talab etiladi.

Botiniy ma'noni ifodalashda so'zning ramziy ma'nolari alohida mohiyat kashf etadi. So'zning ramziy ma'nosi ma'lum bir so'zning o'ziga xos, alohida, atamaviy ma'nosi va vazifasiga ega. Chunonchi, gul leksemasi badiiy adabiyotda uch ma'no tizimiga egadir:

1. To'g'ri ma'nolar tizimi: bo'tali o'simlikning gulbarglarning xilma-xil rang, katta-kichiklik va tartibda joylashishidan iborat chiroylik, go'zallik, noziklik, xushbo'ylik va yaxshilik ramzi bo'lgan iste'mol qilinmaydigan hosili va shunday hosil beruvchi o'simlikning o'zi;

2. Ko'chma ma'nolar tizimi: go'zallik, noziklik, chiroylik, xo'shbo'ylik nafis va yaxshilik ma'nolarini ot va sifat sifatida ifodalash;

3. Ramziy ma'no: borliqni yaratgan, undagi har bir narsaga borliq va husn bergan, ularda o'zining cheksiz azaliy sifatlarining ayrimlarini aks ettirgan go'zallik, jumladan, yuz go'zalligi ramzi, timsoli; Haq husni ramzi.

Bu izohlardan ko'rinib turibdiki, to'g'ri, ko'chma va ramziy ma'nolar o'zaro o'xshashlikka ega, ularni "go'zallik" semasi birlashtirib turadi. Lekin ko'chma ma'noda dunyoviy, moddiy go'zallik anglashilsa, ramziy ma'no bunday moddiylikdan holi qilinadi. Shuning uchun ramziy ma'noni to'raligicha tavsiflash mumkin emas.

O'zbek tilining fitonimik leksemalari tarkibida quyidagi: gul, shox, barg, sarv, shamshod, g'uncha, meva, ko'kat, o'simlik kabi so'zlar ramziy ma'nolari uchraydi. Bunda, jumladan, gul Haq eng go'zal yuzini aks ettirsa, sarv eng go'zal qomatlar, g'uncha Haq asroridan so'zlovchi til (og'iz, lab), nargiz to'g'ri yo'lga, Haq yo'lga qarashga undovchi ko'zlar, meva Haqning yaratuvchilik qudrati ramzlaridir. Tikan esa Ollahning inson chidami va qat'iyatini sinash ramzidir. Mana shu ma'nolar fitonim leksemalarining ramziy ma'nolar tizimi markazini tashkil etadi. Chunonchi, gul go'zal yuz, Haq go'zalligi ramzi bo'lsa, gulning yuzlab turlarini atovchi leksemalar ham umumiy ma'no va uning alohida ko'rinishlari bilan baholanadi. Shu usul bilan har bir o'simlik nomi o'zbek tilidagi fitonimik leksemalarning ramziy-ma'rifiy ma'nosini kashf etadi.

**Tahlil va natijalar.** Badiiy adabiyotda ijodkorlar fitonimlarning ko'chma ma'nolaridan keng foydalanganlar. Ko'pgina holatlarda ko'chma ma'noda kelganda fitonimlarda ramziy ma'nolar bo'ttirilmaydi. Chunonchi, Erkin Vohidov,

Barg ostidan muloyim,

Boqqan iboli g'uncha,

Ne sirni saqlagaysan

Bag'ring nega tuguncha?

Ey g'uncha, sabr aylab,

Umidi vasl qilgil (E.Vohidov).

Bu misralarda g'uncha poetik timsol, ramz sifatida ifodalangan. E.Vohidovning "Dildora noma yozdim" she'ridagi

Gul bo'ylarini bog'dan,

Keltirgil, ey shalola...

Gulbargi lolani elt,

Qo'yg'il qadah yoniga.

Bargi xazonni olib,

Yoniga qo'yginu ayt...

Gul shoxidan tikan uz,

Gulbargi lolaga sanch.

Ko'ksimga tig' uraymi,

Hech kolmadi iroda.

kabi misralarida ham bir qator o'simlik nomlari nazmiy so'zlar, nazmiy timsollar sifatida qo'llanilgan.

Nazmiy so'zlar poetik obrazlarni ifodalashga xizmat qiladi. Nazmiy so'zlar ifodalaydigan shu so'zning o'z va ko'chma ma'nolari bilan aloqador bo'lsa ham, nazmiy so'zning ramziy, poetik timsoliy ma'nosi bilan shu

so'zning o'z yoki ko'chma ma'nosi bir narsa emas. Chunonchi, E.Vohidovning yuqorida keltirilgan g'uncha timsolli g'azalidan olingan misralariga murojaat qilaylik. Bu misralarda g'uncha so'zi yosh qiz yoki kelinchak ma'nolari bilan qo'llanilganga o'xshaydi. Lekin she'rdagi g'uncha timsolli yosh qiz, kelinchak obrazi emas; shoir g'unchani poetik obraz sifatida oladi

va uning orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi, u yori ham emas, shaxs ham emas.

Nazmiy so'zlarning poeziyada keng tarqalishiga, shubhasiz, birgalikda ma'rifiy ma'noli so'zlarning keng qo'llanilishi kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun fitonimlardan gul leksemasining yuzdan ortiq nomlari (atirgul, safsgul, rayhon, sadbarg, nargis v.h.), meva nomlari (anor, olma, gilos, nok...), daraxt nomlari (chinor, majnuntol, qayin, archa, terak...) badiiy adabiyotda, she'riyatda nazmiy so'zlar sifatida keng qo'llaniladi va ramziy ma'nolar kashf etadi.

Nazmiy so'zlarning badiiy adabiyotimizda ramziy ma'nolar kashf etishi murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha ko'chimlarni ko'rish mumkin. Bunda keng tarqalgan usul, asosan, quyidagi zanjirdir:

«o'xshatish - metaforik ko'chim      sinekdoxik ko'chim»

yuzi gulday yor - gul yuzli      - gul

qomati sarvdek - sarvqad      - sarv.

Gulim, kelgil, Gulim, toza gulim, kel! (I.Sulton, Uygun). Bu misolda uch marta gulim so'zi qo'llanilgan bo'lib, birinchi va ikkinchi qo'llanilish so'z o'yini bo'lib kishi nomi (Guli) va o'simlik nomi (gul) egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilgan. Uchinchi qo'llanilishda gul so'zi ko'chma ma'noda alohida bir shaxs - Guliga murojaat, undalma vazifasida kelmoqda. Mana shunday qo'llanilishdan nazmiy so'zlar rivojlanadi.

Badiiy adabiyotimiz durdonalaridagi ramziy ma'noli so'zlarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, quyida ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib o'tamiz. Chunonchi, sarv qad-qomatning bo'lganligi asosida poetik obrazni shakllantirsa, nahl, nihol so'zlarning ramziy ma'nolarida qad-qomat ma'nosi yoshlik, navrastalik, navnihollik ma'nolari bilan bir muncha murakkablashadi, chinor so'zida esa, aksincha, tajribalilik, mustahkamlik, kattalik bo'yoqlari ajratiladi. Demak, ramziy ma'nolarda ham nihol-

daraxt-chinor darajalanish munosabatlari saqlanadi. Xuddi shunday hodisani g'uncha-gul qatorida ham ko'rish mumkin. Gulning ramziy ma'nosi go'zallik, nafosat, yoshlik bo'lsa, g'uncha undagi navrastalik ma'nosini kuchaytiradi.

O'zbek tilida fitonimik leksemalarning nutqiy sinonimik, so'zning ma'nodoshlik xususiyatlari, leksik parafrazalar (bir narsani turli tomondan nomlash) orqali ham ramziy ma'nolari ifodalanadi. Xususan, sunbul (soch orqali), nargiz ( ko'z orqali), rayhon (hid oqali), tikan (kiprik orqali) so'zlari bilan ham ifodalanadi. Chunonchi,

Qizg'aldoqlar bosh egib, qon yig'lab turar (M.Yusuf).

Birov demadiki, ey gulira'no,

Navro'zlersiz, axir, senda ne ma'no (M.Yusuf).

O'sha gulbog' aro suyganim ra'no (E.Vohidov).

Oy kelib sarv uzra qo'ndi,

Bo'ldi oyruxsor sarv (E.Vohidov).

Yuz jilva bilan nozli xirom etsa pechakgul,

Shohigul aning raqsida xonanda bo'libdur (E.Vohidov).

Keksa qarag'ayning ildizin ochib, tortdilar (E.Vohidov).

Beqasam archadan bukri tolgacha,

Qovun hidi tutib yotgan polizlar (O.Hojiev)

Shoir qalbi go'yo anor (E.Vohidov).

Bir tomchi quyosh o'ynar,

Naqsh olma yonog'ida (E.Vohidov).

Xa, o'z farzandlarin soz, inoq ko'rgan,

Vatanga o'xshardi bu ulug' ch i n o r (O.Matchon).

Hozirgi adabiy tilimiz leksik jihatdan mumtoz adabiyotimiz tilidan keskin farqlanadi. Shuning uchun badiiy tasvirda nazmiy so'zlar, nazmiy ramziy ma'noli so'zlar tarkibi ham bir-biridan ancha farq qiladi. Hozirgi adabiyotda mumtoz adabiyotda gul sarv, rayhon, sunbul, shamshod, nargiz, sadbar, olma, anor kabi so'zlar keng qo'llanilishi bilan birga, ba'zi so'zlarning bir qismi iste'moldan chiqmoqda. Ularning o'rinda o'xshatish va qiyoslashning yangi-yangi manbalari ishlatilmoqda. Bunday nazmiy neologizmlar sifatida charos, gilos, nilufar, karnaygul, boychechak, lolaqizg'aldoq, q izg'aldoq, na'matak, kishmish, binafsha, momoqaymoq, yalpiz, boychechak, chuchmoma kabi o'nlab gul nomlarini, hatto, bodring, ajriq kabi so'zlarni keltirish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, ramziy ma'no yangi so'zlar faqat shaklan yangidir. Bu yangi so'zlarning barchasida ramziy ma'no gul leksemasida mujassamlangan ma'nodir. Yangi so'zlar shu ma'noni boshqa bo'yoqlarda, boshqacha jilolarda berishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. - Т.: Ўқитувчи, 1973, - 320 б.
2. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. - М.: Наука, 1974, - 368 с.
3. Гейгер В.Э. Роман тилларида фитонимик деривацион тизимлар: келиб чиқиши ва ривожланиши юзасидан таджикотлар. – Шимолий Королина: Шимолий Каролина университети, 1978. – 228 б.
4. Жамолхонов Х. ва бошқалар. Ботаникадан русча-ўзбекча энциклопедик луғат. - Т.: Ўқитувчи, 1973. - 294 б.
5. Квасите Р. Латин адабий эртаклари ва уларнинг литва тилига таржимасида антропоним ва фитонимлар (Гуллар: Анна Саксе эртаклари асосида). // Versita. – Шауляй, 2013. – Б. 79-91.
6. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. - Т.: Ўқитувчи, 1995. - 232 б.
7. Ньёматова Г. Ўсимлик номларининг маъновий қиймати//Ўзбек тили ва адабиёти. - 1996. - № 6. - Б. 22-26.
8. Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. - Т: Фаң, 1982. - 86 б.